

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

Volume 2 Issue 1

2026

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

1-son

2026

**Международный журнал
современных научно-**

технических

исследований

Том 2 Выпуск 1

2026



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

KO'P TILLILIK VA LINGVISTIK MASALALAR: NAZARIY TAHLIL VA TA'LIMIY YONDASHUVLAR

Isanova Zebuniso Shavkatovna

Samarqand davlat chet tillar instituti, o'qituvchi (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada ko'p tillilik sharoitida yuzaga keladigan asosiy lingvistik masalalar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ko'p tillilik tushunchasining zamonaviy talqinlari, til interferensiyasi, kod-almashinuvi hamda translanguaging hodisalari yetakchi lingvist olimlarning ilmiy qarashlari asosida yoritilgan. Shuningdek, CEFR doirasida ilgari surilgan plurilingual kompetensiya konsepsiyasining ta'lim jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Nazariy tahlil natijalari ko'p tilli yondashuvning chet tillarini o'qitishda pedagogik resurs sifatida xizmat qilishini, o'quvchilarning lingvistik, kognitiv va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga imkon berishini ko'rsatadi. Maqola xulosalari zamonaviy til ta'limida monolingval yondashuvdan ko'p tilli va inklyuziv yondashuvga o'tish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ko'p tillilik, lingvistik masalalar, plurilingual kompetensiya, til interferensiyasi, kod-almashinuvi, translanguaging, CEFR, til ta'limi.

АНАЛИЗ ДЕЙКСИСА В АНГЛОЯЗЫЧНЫХ АГРОТЕКСТАХ НА ОСНОВЕ ГРАУНДИНГ-ТЕОРИИ

Isanova Zebuniso Shavkatovna

Самаркандский государственный институт иностранных языков, преподаватель (PhD)

Аннотация

В данной статье представлен теоретический анализ многоязычия и основных лингвистических проблем, возникающих в условиях многоязычной среды. Рассматриваются современные подходы к понятию многоязычия, а также такие лингвистические явления, как языковая интерференция, кодовое переключение и транслингвизм, на основе научных трудов ведущих лингвистов. Особое внимание уделяется концепции плюрилингвальной компетенции в рамках Общеввропейских компетенций владения иностранным языком (CEFR) и ее значению в образовательном процессе. Результаты теоретического анализа подтверждают, что многоязычный подход способствует развитию лингвистической, когнитивной и межкультурной коммуникативной компетенций обучающихся и должен рассматриваться как эффективный педагогический ресурс в современном языковом образовании.

Ключевые слова: многоязычие, лингвистические проблемы, плюрилингвальная компетенция, языковая интерференция, кодовое переключение, транслингвизм, CEFR, языковое образование.

A GROUNDING-THEORY-BASED ANALYSIS OF DEIXIS IN ENGLISH AGRICULTURAL TEXTS

Isanova Zebuniso Shavkatovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Lecturer (PhD)

Abstract

This article provides a theoretical analysis of multilingualism and the key linguistic issues arising in multilingual contexts. The study examines modern interpretations of multilingualism, focusing on such phenomena as language interference, code-switching, and translanguaging, drawing on the works of leading linguists. Particular attention is given to the concept of plurilingual competence as defined in the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) and its relevance to contemporary language education. The findings of the theoretical analysis indicate that a multilingual approach should be regarded not as an obstacle but as a pedagogical resource that enhances learners' linguistic, cognitive, and intercultural communicative competences. The article argues for a shift from monolingual instructional models to inclusive, multilingual-oriented teaching practices in foreign language education.

Keywords: multilingualism, linguistic issues, plurilingual competence, language interference, code-switching, translanguaging, CEFR, language education.

So‘nggi yillarda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro migratsiya, raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi hamda ta‘lim tizimlarining integratsiyalashuvi natijasida ko‘p tillilik (multilingualism) masalasi lingvistika, psixolingvistika va pedagogika fanlarining eng dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy jamiyatda bir nechta tillarni bilish nafaqat kundalik kommunikativ ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki shaxsning ijtimoiy mobilligi, kasbiy raqobatbardoshligi va madaniyatlararo muloqotdagi muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida qaralmoqda.

An‘anaviy monolingval paradigma til tizimlarini bir-biridan mustaqil hodisalar sifatida ko‘rib chiqqan bo‘lsa, zamonaviy lingvistika ko‘p tillilikni dinamik va integrativ kompetensiya sifatida talqin qiladi. Grosjean (1989) ta‘kidlaganidek, ko‘p tilli shaxs ikki yoki undan ortiq alohida til tizimlarining oddiy yig‘indisiga ega emas, balki vaziyatga moslashuvchi yagona kommunikativ repertuar egasidir. Shu sababli ko‘p tillilikni o‘rganish nafaqat til tizimlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, balki inson tafakkuri, identiteti va ijtimoiy faoliyatini tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlar ta‘lim siyosatida ko‘p tillilikni rivojlantirishni strategik maqsad sifatida belgilamoqda. Xususan, chet tillarini o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning mavjud til resurslaridan samarali foydalanishga asoslangan yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa ko‘p tillilik bilan bog‘liq lingvistik hodisalarni chuqur nazariy tahlil qilishni talab etadi.

Ko‘p tillilik tushunchasining nazariy asoslari

Ko‘p tillilik bir shaxs yoki jamiyatning ikki va undan ortiq tillardan foydalanish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar individual ko‘p tillilik va ijtimoiy ko‘p tillilikni farqlaydilar. Individual ko‘p tillilik muayyan shaxsning bir nechta tillarni bilishini anglatadi, ijtimoiy ko‘p tillilik jamiyatda bir necha tillarning parallel ravishda qo‘llanishini bildiradi.

“Multilingvizm” termini negizida turli tillarda til ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxs tushuniladi. U o‘qish, yozish, gapirish, tinglab tushunish, shuningdek, dialektlardan foydalanish bo‘yicha yuqori darajadagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi mumkin. Multilingval kompetentlikka shaxs ijtimoiy muhit orqali erishadi (masalan, ota-ona tillari, bilingval ta‘lim, chet elda uzoq vaqt yashash, xorijda ishlash va h.k.).

Baker (2011) ko‘p tillilikni lingvistik hodisadan tashqari ijtimoiy, siyosiy va madaniy fenomen sifatida ham tavsiflaydi. Uning fikricha, ko‘p tillilik jamiyatning madaniy xilma-xilligini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlar ko‘p tillilikning shaxs kognitiv rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini isbotlamoqda. Xususan, ko‘p tilli shaxslar muammolarni hal qilish, diqqatni boshqarish va ijodiy fikrlashda yuqori natijalarni namoyon etishi kuzatilgan.

Til interferensiyasi va transfer masalalari

Ko‘p tillilik bilan bog‘liq eng muhim lingvistik hodisalardan biri interferensiyadir. Interferensiyaga oid tadqiqotlar U. Vaynrayxning *“Til kontaktlari”* nomli monografiyasi nashridan keyin jadallashdi. Vaynrayx (1953) interferensiyani ikki yoki undan ortiq tillarning o‘zaro ta‘siri natijasida yuzaga keladigan lingvistik o‘zgarishlar sifatida ta‘riflaydi. Rus tadqiqotchisi V. Yu. Rozensveyg fikriga ko‘ra, interferensiya bu tillarning korrelyatsiya qoidalarini ikki tilli shaxs tomonidan buzilishi bo‘lib, u nutqda me‘yordan og‘ish shaklida namoyon bo‘ladi.

Interferensiya quyidagi darajalarda kuzatiladi:

Fonetik interferensiya

Bir tilning talaffuz xususiyatlari boshqa til nutqiga ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi ingliz tili o‘rganuvchilarda ayrim tovushlarning noto‘g‘ri artikulyatsiyasi uchrashi mumkin.

Grammatik interferensiya

Ona tilidagi grammatik modellar chet tiliga ko‘chiriladi. Natijada gap tuzilishi yoki morfologik shakllarda xatolar yuzaga keladi.

U. Vaynrayx grammatik interferensiya bir til tizimiga kiritilgan grammatik birliklarni tartibga solish, moslashtirish, tanlash yoki o‘zgartirish qoidalari boshqa til elementlarining taxminan bir xil zanjirlariga nisbatan qo‘llanilganda paydo bo‘lishini ta‘kidlagan.

Leksik-semantik interferensiya

So‘zlarning ma’no doirasi yoki qo‘llanish kontekstlari tillararo farqlanishi sababli noto‘g‘ri tarjima va semantik xatolar kuzatiladi.

Shunga qaramay, zamonaviy tadqiqotlar transfer hodisasining ijobiy jihatlarini ham e’tirof etadi. Pozitiv transfer o‘quvchilarning avvalgi til tajribasidan foydalanib, yangi tilni tezroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shu sababli interferensiyani faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki til rivojlanishining tabiiy bosqichi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Kod-almashinuvi va uning kommunikativ funksiyalari

Kod-almashinuvi (code-switching) ko‘p tilli shaxslarning muloqot davomida bir tildan boshqasiga o‘tishini anglatadi. Gumperz ushbu hodisani ijtimoiy va pragmatik omillar bilan bog‘liq kommunikativ strategiya sifatida izohlagan.

Kod-almashinuvi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kommunikativ qulaylik yaratish;
- identitetni ifodalash;
- ijtimoiy guruhga mansublikni ko‘rsatish;
- emotsional ma’nolarni kuchaytirish;
- ma’lum tushunchalarni aniqroq ifodalash.

Avvalgi tadqiqotlarda kod-almashinuvi til normasidan chekinish sifatida baholangan bo‘lsa, bugungi kunda u ko‘p tilli kommunikatsiyaning tabiiy va funksional qismi sifatida qaralmoqda.

Translanguaging: zamonaviy yondashuv

So‘nggi o‘n yilliklarda translanguaging konsepsiyasi ko‘p tillilik tadqiqotlarida alohida o‘rin egalladi. García va Wei (2014) translanguagingni shaxsning barcha til resurslaridan yagona kommunikativ tizim sifatida foydalanishi deb ta’riflaydi.

Mazkur yondashuvning asosiy afzalliklari:

- o‘quvchilarning mavjud bilimlarini faollashtiradi;
- murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi;
- til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi;
- lingvistik va madaniy identitetni qo‘llab-quvvatlaydi;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Translanguaging yondashuvi, ayniqsa, ko‘p millatli va ko‘p tilli auditoriyalarda samarali hisoblanadi. U o‘quvchilarga tillar o‘rtasida sun‘iy chegaralar qo‘ymasdan, barcha lingvistik resurslardan foydalanish imkonini beradi.

Kognitiv rivojlanish va ko‘p tillilik

Ko‘p tillilikning kognitiv jihatlarini ham keng o‘rganilgan. Cummins tomonidan ishlab chiqilgan “Common Underlying Proficiency” (CUP) nazariyasiga ko‘ra, turli tillarda shakllanadigan bilim va ko‘nikmalar umumiy kognitiv bazaga tayanadi.

Mazkur nazariya quyidagilarni tushuntiradi:

- bir tilda rivojlangan savodxonlik boshqa tillarda ham qo‘llanilishi mumkin;
- akademik til ko‘nikmalari tillararo transfer qilinadi;
- metalingvistik ong rivojlanadi;
- til o‘rganish jarayoni tezlashadi.

Bundan tashqari, ko‘p tillilik ijro funksiyalari (executive functions), xotira va e’tiborni boshqarish qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

CEFR va plurilingual kompetensiya

Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan CEFR hujjatlarida plurilingual kompetensiya tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, shaxs tillarni alohida-alohida emas, balki yagona kommunikativ repertuar tarkibida qo‘llaydi.

Plurilingual yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- tillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tan olish;
- madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish;

- til resurslaridan integrativ foydalanish;
- moslashuvchan kommunikativ strategiyalarni shakllantirish.

Bu yondashuv zamonaviy ta'lim tizimlarida ko'p tillilikni rivojlantirishning nazariy asosi sifatida xizmat qilmoqda.

Ko'p tillilikning ta'limiy ahamiyati

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'p tillilik ta'lim jarayoniga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jumladan:

- o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi rivojlanadi;
- madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari shakllanadi;
- tanqidiy va analitik fikrlash kuchayadi;
- til o'rganishga motivatsiya ortadi;
- global fuqarolik kompetensiyalari rivojlanadi.

Shu bilan birga, ko'p tillilik sharoitida ayrim muammolar ham yuzaga keladi. Pragmatik xatolar, madaniy stereotiplar, noto'g'ri talqinlar va kommunikativ nomuvofiqliklar o'qituvchidan nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham talab qiladi. Shu sababli o'qituvchilar ko'p tillilikka asoslangan metodik yondashuvlarni puxta egallashlari zarur.

Muhokama

Nazariy manbalar tahlili ko'rsatadiki, ko'p tillilikni faqat bir nechta tillarni bilish sifatida talqin qilish yetarli emas. Zamonaviy ilmiy qarashlarda u kognitiv, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni qamrab oluvchi murakkab tizim sifatida tushuniladi. Interferensiya, kod-almashinuvi va translanguaging kabi hodisalar ko'p tilli shaxslarning lingvistik repertuari qanday ishlashini ko'rsatib beradi.

Bugungi ta'lim tizimlarida monolingval metodlardan voz kechib, o'quvchilarning mavjud til tajribasiga tayanuvchi pedagogik strategiyalarni qo'llash zarurati ortib bormoqda. Bunday yondashuvlar nafaqat tilni samarali o'rgatadi, balki o'quvchilarning madaniy identitetini saqlash va rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ko'p tillilik zamonaviy tilshunoslik va ta'lim nazariyasining muhim konseptual yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interferensiya, transfer, kod-almashinuvi va translanguaging kabi hodisalar ko'p tillilikning tabiiy tarkibiy qismlaridir. Cumminsning umumiy kognitiv asos nazariyasi hamda CEFR hujjatlaridagi plurilingual kompetensiya konsepsiyasi tillarni o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rish zarurligini tasdiqlaydi.

Shu sababli chet tillarini o'qitishda ko'p tillilikni cheklovchi emas, balki pedagogik resurs sifatida qabul qiluvchi yondashuvlarni joriy etish muhimdir. Bunday yondashuv o'quvchilarning kommunikativ, kognitiv va madaniy kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi hamda zamonaviy global jamiyat talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baker C. Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. – Bristol: Multilingual Matters, 2011.
2. Cummins J. Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. – Clevedon: Multilingual Matters, 2000.
3. Garcia O., Wei L. Translanguaging: Language, Bilingualism and Education. – London: Palgrave Macmillan, 2014.
4. Grosjean F. Neurolinguists, Beware! The Bilingual Is Not Two Monolinguals in One Person // Brain and Language. – 1989. – Vol. 36, No. 1. – P. 3–15.
5. Gumperz J. J. Discourse Strategies. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982.
6. Weinreich U. Languages in Contact: Findings and Problems. – New York: Linguistic Circle of New York, 1953.
7. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.